

TASDIQLAYMAN
“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ
boshqaruvi raisi o‘rinbosari



J.Z.Yusupov

2026-yil “27” yanvar

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ boshqaruvi raisi o‘rinbosari rahbarligida
o‘tkazilgan 3- sonli yig‘ilish BAYONI.

2026-yil “27” yanvar

Toshkent sh.

Yig‘ilish raisi:

J.Z.Yusupov – “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ
boshqaruvi raisi o‘rinbosari

Yig‘ilish qatnashchilari:
boshqarma boshlig‘i

F.Y.Zulfikarov - Korrupsiyaga qarshi kurashish

F.I.Musalimov - Ichki audit xizmati boshlig‘i

A.Sh.Bozorov - Buxoro mintaqaviy temir yo‘l
uzeli filiali” boshlig‘i

Taklif etilganlar:

“Buxoro mintaqaviy temir yo‘l uzeli filiali” va
uning tezkor bo‘ysinuvidagi korxonalar
rahbarlari, tegishli bo‘lim boshlig‘i – 26 nafar

KUN TARTIBI:

“Temiryo‘linfratuzilma”AJ “Buxoro mintaqaviy temir yo‘l uzeli” filiali va
uning tezkor bo‘ysinuvidagi filiialarda o‘tkazilgan monitoring natijalar
tahlili, korrupsiyaga qarshi kurashish hamda rahbar xodimlarni
javobgarligini oshirish masalalari

Kun tartibiga qo‘yilgan masalalar yuzasidan “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ boshqaruv raisi o‘rinbosari **J.Z.Yusupov** so‘zga chiqib, Jamiyat boshqaruv raisining 2025-yil 22-yanvardagi 39-N-sonli buyrug‘i ijrosi yuzasidan “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati tarkibiy tuzilmasini tubdan isloh qilish hamda boshqaruv va ishlab chiqarish xodimlari sonini maqbullashtirish orqali zamonaviy talablarga javob beradigan, ixcham va samarali boshqaruv tizimini yaratish, Jamiyat va uning tizim tashkilotlarida korrupsiyaning oldini olish, unga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, “halollik vaksinasi”ni targ‘ib qilish, xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ongi va madaniyatini oshirish bo‘yicha o‘rganish olib borilganligini ta’kidlab o‘tdi.

Barcha ishchi xodimlarga internet tarmoqlarida ta'qiqlangan saytlarga kirmasliklari, mazkur ta'qiqlangan saytlarga kirib tarqatilgan materiallarga izoh yozish yoki birgina ushbu ma'lumot va videolarga "layk" tugmasini bosishlari bilan ushbu ta'qiqlangan videolarni tarqatuvchisiga aylanib qolishlari, keyinchalik esa O'z Res MJtKning 184-2-modda (diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish), 184-3-modda(milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ'ib qiluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash yoki tarqatish), 201-modda (yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o'tkazish tartibini buzish), 240-modda(diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun xujjatlarini buzish) 241-modda(diniy ta'limotdan saboq berish tartibini buzish va ekstremistik oqimlar faoliyatida turli shakllarda ishtirok etish) bilan va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksinig bir necha moddalari bilan jinoiy javobgarlikka olib kelishi tushuntirildi.

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarma boshlig'i F.Y.Zulfikarov jamiyat va tizim tashkilotlarida korrupsiyani oldini olish, unga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ong va madaniyatini oshirish masalalariga alohida to'xtaldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-sonli Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "**Buxoro MTU**" filiali hamda **Buxoro vagon deposi (VCHD Buxoro)** hisoboti o'rganib chiqilganligini aytib, uning natijasida aniqlangan kamchiliklarga kelajakda yo'l qo'ymaslik uchun kerakli ko'rsatmalarni berib o'tdi.

Bundan tashqari, Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi tomonidan 2024-yil 29-oktabrdan 1-noyabr sanasiga qadar "**Buxoro mintaqaviy temir yo'l uzeli**" filiali va uning tezkor bo'ysinuvidagi filiallarda o'tkazilgan monitoring yakuni bo'yicha tuzilgan ma'lumotnomada ko'rsatilgan kamchiliklar to'liq va to'g'ri holda bartaraf etilishi topshirilgan bo'lsada, yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarga takroran yo'l qo'yilgan.

Xususan, "Temiryo'linfratuzilma" aksiyadorlik jamiyati Samarqand temir yo'l masofasi filiali boshlig'i **Xamidov Farxod Sattarovich** mazkur filialning bosh muhandisi **Rustamov Elyor Baratovich** bilan qaynota – kuyov qarindoshlik darajasida bo'lib, birining ikkinchisiga bevosita bo'ysunishi ma'lum bo'ldi.

"Temiryo'linfratuzilma" aksiyadorlik jamiyati Buxoro temir yo'l masofasi filiali boshlig'i **Tuyov Rustam Qo'shshayevich** mazkur filialning boshliq o'rinbosari vazifasini bajaruvchisi **Qo'shshayev Murod Rustamovich** bilan ota – o'g'il qarindoshlik darajasida bo'lib, birining ikkinchisiga bevosita bo'ysunishi ma'lum bo'ldi.

“Temiryo‘linfratuzilma” aksiyadorlik jamiyati 17-son yo‘l mashinalari stansiyasi filiali boshlig‘i **Mamedov Mustafo Sodikovich** mazkur filialning hisobchisi **Muxammedova Nigora Valiyevna** bilan **er-xotin** qarindoshlik darajasida bo‘lib, ular orasida ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi ma‘lum bo‘ldi.

Temiryo‘linfratuzilma” aksiyadorlik jamiyati “Navoiy signallashtirish va aloqa masofasi” filiali MPS-Turon bo‘yicha boshliq o‘rinbosari **Maxmudov Xasan Maxmud o‘gli** mazkur filialning yo‘riqchisi - **Maxmudov Xusan Maxmud o‘gli** bilan aka-uka qarindoshlik darajasida bo‘lib, birining ikkinchisiga bevosita bo‘ysunishi ma‘lum bo‘ldi.

Yig‘ilish yakunida Ichki audit xizmati boshlig‘i **F.I.Musalimov**, “Buxoro mintaqaviy temir yo‘l uzeli” filiali va uning tezkor boshqaruvdagi filiallariga buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri va haqqoniy yuritish maqsadida quyidagi tavsiyalarni berib o‘tdi:

Asosiy vositalarning amortizatsiya hisoblanilishi belgilangan normalar asosida hisoblash, ya‘ni Soliq kodeksi 306-moddasiga muvofiq ichki normativ hujjatlar va hisob-siyosatiga muvofiq hisoblanilishi yuzasidan, uzoq vaqt turib qolgan va o‘rnatish muddati o‘tib ketgan o‘rnatiladigan asbob uskunalar bo‘yicha Soliq oqibatlarini vujudga kelishi tushuntirib o‘tildi va obyektlarda qurilish ishlarida asbob-uskunalar o‘rnatilgandan so‘ng hisobidan chiqarilishi lozimligi bo‘yicha, korxonalar va tashkilotlarda yillar davomida turib qolgan, foydalanilmayotgan (nelikvid) materiallarni vujudga keltirmaslik uchun tannarxini to‘g‘ri shakllantirishda amaldagi hisob siyosatiga muvofiq materiallar sarflanilishida FIFO usulidan foydalanish bo‘yicha tavsiya va ko‘rsatmalar berildi.

Bundan tashqari, muddati o‘tgan debitor qarzdorliklar yuzaga kelmaslik uchun tuzilgan shartnomalar ijrosi to‘liq o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta‘minlash, yuzaga kelgan muddati o‘tgan debitor qarzdorliklarni hisobotda to‘liq va xaqoniy aks ettirish, debitor qarzdorliklar pulini to‘liq undirish, ijro varaqalarini ijrosini amalga oshirish uchun kechiktirilmagan holda chora-tadbirini ko‘rish, solishtirma dalolatnomalarni elektron hujjat aylanishining avtomatlashtirilgan axborot tizimida shakllantirish va kontragentga har oyda tasdiqlash uchun yuborish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Yuqoridagilarni inobatga olib yig‘ilish

QAROR QILADI:

1. “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining boshqaruv raisi **J.Z.Yusupov**, Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig‘i **F.Y.Zulfikarov**, Ichki audit xizmati **F.I.Musalimov** ma‘lumotlari ishda qo‘llash uchun qabul qilinsin.

2. “Buxoro mintaqaviy temir yo‘l uzeli” filiali boshlig‘i **A.Sh.Bozorovga**:

“Buxoro mintaqaviy temir yo‘l uzeli” filiali va tezkor bo‘ysinuvdagi tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha profilaktik yig‘ilishlar o‘tkazilishi ta‘minlasin.

Aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tegishli tartibda bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirilishi nazoratga olinsin.

Jamiyatning 2022 yil 30 dekabrda 1228-N-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Siyosati” bilan barcha hodimlar belgilangan tartibda tanishtirilsin.

“Temiryo‘linfratuzilma” aksiyadorlik jamiyati Buxoro temir yo‘l masofasi filiali boshlig‘i kadr masalalari va manfaatlar to‘qnashuvi holatiga yo‘l qo‘yganligi sababli **Tuyov Rustam Qo‘shayevichga** nisbatan **xayfsan** intizomiy jazosi qo‘llash yuzasidan taklif kiritsin.

3. “Buxoro mintaqaviy temir yo‘l uzeli” filiali va uning tezkor bo‘ysinuvida bo‘lgan korxonalarining korrupsiya qarshi ichki nazorat bo‘yicha mas‘ul xodimlari yig‘ilishda kelgusida ko‘rsatib o‘tilgan kamchiliklarga takroran yo‘l qo‘yilgan taqdirda intizomiy jazo chorasi qo‘llanishi bo‘yicha ogohlantirilsin.

4. Uzelning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha ma‘sul xodimi N.Mardonovga aniqlangan kamchiliklar va tavsiyalar bo‘yicha chora-tadbir rejasini ishlab chiqish hamda unda belgilangan vazifalarning o‘z muddatida bajarilishini nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu yig‘ilish bayoni ijrosini nazorat qilish “Buxoro mintaqaviy temir yo‘l uzeli” filiali boshlig‘i A.Sh.Bozorov zimmasiga yuklatilsin.

Bayon yurituvchi
E.Muminova